



TEXNOLOGIYA DARSLARIDA MILLIY HUNARMANDCHILIK AN'ANALARINI O'RGATISH USHLUBLARI

Ergasheva Madinaxon Olimjon qizi
Ismoilova Jumagul Ilxomjon qizi

Qo'qon DU Texnologik ta'lim yo'nalishi II-bosqich talabalari

E-mail: madinaxonergasheva96@gmail.com,
jumagulxadicha@gmail.com.

Annotatsiya. Mazkur maqolada texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik an'analari o'quvchilarga o'rgatishning ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Unda o'quvchilarda milliy qadriyatlarni e'zozlash, estetik didni rivojlantirish, mehnatsevarlik va ijodkorlikni shakllantirishda hunarmandchilik elementlarini dars jarayoniga integratsiya qilishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, milliy hunarmandchilik turlaridan foydalanish orqali o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish usullari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Texnologiya fani, milliy qadriyatlar, hunarmandchilik, o'qitish ushlublari, amaliy mashg'ulot, milliy o'zlik, estetik tarbiya, innovatsion metodlar.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida milliy qadriyatlar asosida barkamol avlodni tarbiyalash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" g'oyasi asosida ta'lim jarayonida o'quvchilarga milliy merosni, xalq san'ati va hunarmandchilik an'analari chuqur o'rgatish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Texnologiya fanining mazmuni o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirish, ijodiy fikrlash, amaliy faoliyatni rivojlantirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarni anglashga, ularni hayotda qo'llashga o'rgatadi. Shu jihatdan, texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik elementlarini o'rgatish nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega. Hunarmandchilik san'ati o'zida xalq tafakkuri, tarixiy xotira va estetik didni mujassam etgani bois, u yoshlar ongida milliy g'ururni shakllantiradi.

Muhokama. Hunarmandchilik – bu xalqning ko'p asrlik tajribasi, madaniyati va mehnat madaniyatining ifodasidir. U nafaqat amaliy faoliyat, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar hunarmandchilik asoslarini o'rganish jarayonida sabr, e'tibor, mehnatsevarlik, go'zallikka intilish, aniqlik kabi sifatlarini o'zlashtiradi. Bu esa texnologiya fanining maqsadi – shaxsning mehnat madaniyatini shakllantirish g'oyasiga uyg'un keladi.

Milliy hunarmandchilikni texnologiya fanida o'rgatish, bir tomondan, o'quvchilarning tarixiy va madaniy merosga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ikkinchi tomondan, amaliy ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Masalan, kashtachilik, ganchkorlik, kulolchilik, zardo'zlik, yog'och o'ymakorligi kabi turlar orqali o'quvchi

nafaqat material bilan ishlashni, balki naqsh, rang va shakl uyg'unligini his qilishni ham o'rganadi.

Texnologiya fanida milliy hunarmandchilikni o'rgatish integrativ yondashuvni talab etadi. Bu jarayonda quyidagi pedagogik usullar samarali hisoblanadi:

Amaliy mashg'ulotlar: o'quvchilarni bevosita hunarmandchilik turlarida ishtirok etishga jalb etish (masalan, milliy naqsh elementlarini chizish, matoga tikish, loydan buyum yasash va hokazo).

Demonstratsion usul: ustoz-hunarmandlar ishtirokida ko'rgazmali mashg'ulotlar tashkil etish orqali o'quvchilarni real tajriba bilan tanishtirish.

Loyiha metodi: o'quvchilar milliy hunarmandchilik asosida ijodiy loyiha ishlab chiqishadi (masalan, "Milliy naqsh asosida sovg'a dizayni" loyihasi).

Integratsion yondashuv: tarix, san'at, geografiya kabi fanlar bilan bog'lab o'qitish, bu esa hunarmandchilikning tarixiy ildizlari va hududiy xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rag'batlantirish, ularning ijodiy fikrini erkin ifodalash imkoniyatini yaratish ham muhimdir. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi va maslahatchi rolini bajaradi.

Zamonaviy texnologiyalar davrida milliy hunarmandchilikni o'rgatish jarayoni innovatsion shakl va metodlar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Xususan:

raqamli texnologiyalar yordamida milliy naqshlarni 3D formatda modellashtirish; interaktiv darslar orqali xalq hunarmandchiligi muzeylariga virtual sayohatlar tashkil etish; multimedia vositalari orqali hunarmandlar faoliyati va jarayonlarni videodars shaklida namoyish etish; onlayn platformalar yordamida o'quvchilarning milliy dizayn loyihalarini taqdim etish. Bunday yondashuvlar o'quvchilarning zamonaviy dunyoqarashini kengaytirish bilan birga, milliy merosga hurmat hissini yanada mustahkamlaydi.

Milliy hunarmandchilikni o'rgatish jarayonida o'quvchilar nafaqat kasbiy ko'nikmalarni, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o'zlashtiradi. Ular har bir naqsh ortida chuqur falsafiy ma'no borligini anglaydi. Masalan, "Islimiy" naqsh o'sish va hayot timsoli bo'lsa, "Girih" naqshi uyg'unlik va tartibni ifodalaydi. Shu orqali o'quvchi o'z xalqining badiiy tafakkurini his qiladi, milliy o'zligiga hurmat bilan qaraydi.

Xulosa. Texnologiya darslarida milliy hunarmandchilik an'alarini o'rgatish – bu nafaqat ta'limiy jarayon, balki milliy ongini shakllantirishning samarali vositasidir. Hunarmandchilikni o'qitish o'quvchilarda mehnatsevarlik, ijodkorlik, estetik did, milliy g'urur va tarixiy xotirani uyg'otadi. O'qituvchi ushbu jarayonda milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, o'quvchilarni milliy merosni saqlash va davom ettirishga yo'naltirishi zarur. Natijada texnologiya fani nafaqat kasbiy ko'nikma beruvchi fan, balki milliy o'zlikni tarbiyalovchi, qadriyatlar asosida fikrlaydigan shaxsni shakllantiruvchi vosita sifatida o'z ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.

2. Sobirovna, U. M. (2023). O'QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA FANINI O'ZLASHTIRISHGA PSIXOLOGIK TAYYORLASH. *Ustozlar uchun*, 16(1), 392-399.
3. Sobirovna, U. M. (2023). MAXSUS TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALAR UCHUN TA'LIMNING INTEGRATSIYALASHUVI. In *Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 4, pp. 14-19).
4. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. *Open Access Repository*, 9(11), 106-113.
5. SOBIROVNA, U. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education.
6. Sobirovna, U. M. (2023). Technology As a Factor of Educational Education In Special Schools. *Journal of Creativity in Art and Design*, 1(1), 4-7.
7. Sobirovna, U. M. (2023). PROFESSIONAL TRAINING OF STUDENTS OF SPECIAL BOARDING SCHOOLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 12(10), 62-67.
8. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. *Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире*, 1(4).
9. Sobirovna, U. M. (2022). USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS. *Open Access Repository*, 9(11), 114-119.
10. Sobirovna, U. M. (2023). TEACHING OF TECHNOLOGY IN SPECIAL BOARDING SCHOOLS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036*, 12(10), 48-54.
11. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.
12. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.
13. Sobirovna, U. M. (2024). PROVIDING INFORMATION ABOUT TEXTILES AND ITS HISTORY IN TECHNOLOGY CLASSES. *World of Medicine: Journal of Biomedical Sciences*, 1, 28-32.
14. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
15. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
16. Sobirovna, U. M. (2024). USE OF SMART TECHNOLOGY IN EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 618-622.